


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR  
INSTITUTI

**USTAVI**



Samarqand – 2023



Samarqand davlat chet tillar  
instituti kengashining 2023  
yil 24 yanvar dagi 10 - son  
qarori bilan tasdiqlangan.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**  
**USTAVI**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 noyabrdagi "Samarqand davlat chet tillar institutini tashkil etish to'g'risida"gi PF-984-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 9 noyabrdagi "Samarqand davlat chet tillar institutini tashkil etish to'g'risida"gi 542-son qarori asosida tashkil qilingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son hamda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorlariga muvofiq Samarqand davlat chet tillar institutiga akademik va tashkiliy boshqaruv sohasida qo'shimcha vakolatlar hamda moliyaviy mustaqillik berilgan.

2. Samarqand davlat chet tillar instituti davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, oliy ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini bajarish bo'yicha ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'quv-pedagogik va ilmiy-metodik, shuningdek, ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi.

3. Samarqand davlat chet tillar instituti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi va boshqa qonunlarga, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining idoraviy va normativ-huquqiy hujjatlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Samarqand davlat chet tillar instituti yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o'ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa, shu jumladan, valyuta bo'yicha hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampiga va qonun hujjatlariga muvofiq o'zining faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa xizmat belgilari va rekvizitlarga ega.

5. Samarqand davlat chet tillar institutining rasmiy to'liq va qisqa nomi:

davlat tilida, kirill alifbosida: **Самарқанд давлат чет тиллар институти - "СамДЧТИ"**

davlat tilida, lotin alifbosida: **Samarqand davlat chet tillar instituti - "SamDCHTI"**

rus tilida: **Самаркандский государственный институт иностранных языков - "СамГИИЯ"**

ingliz tilida: **Samarkand state institute of foreign languages - "SSIFL"**.

6. SamDCHTI tashkiliy-huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tuzilmasiga kiradi.

### **7. SamDCHTI yuridik manzili:**

Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93 uy, tel. +998662337843, faks: + 998662100018, elektron manzil: [ssifl\\_info@edu.uz](mailto:ssifl_info@edu.uz), [www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 dekabrda 746-sonli farmoyishi 4-bandiga ko'ra Samarqand davlat chet tillar institutining Samarqand shahar, Dashtakibolo QFY, Gulobod qo'rg'onidagi o'quv va talabalar turar joyi binolarida qurilish ta'mirlash ishlari yakunlanguniga qadar mazkur institut Samarqand davlat universitetining Samarqand shahar, O'zbekiston ko'chasi, 11 uy manzilidagi o'quv binosi va Bo'stonsaroy ko'chasi, 93 uy manzilidagi talabalar turar joyida tegishli kommunal va foydalanish xarajatlarini qoplagan holda "nol" stavkadagi ijara to'lovi asosida vaqtincha joylashtiriladi.

### **Bank rekvizitlari:**

sh/h: 100010860184017094100350004;

sh/h: 400110860184017094100350011;

sh/h: 400110860184017094100350012;

sh/h: 400410860184017094100350004;

sh/h: 400910860184017094100350008;

sh/h: 400910860184017094100350009;

bank nomi Markaziy bank XKKM Toshkent shahar bosh Boshqarmasi,  
MFO 00014, STIRi 202001213, OKED 85420.

## **II. SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTINING ASOSIY VAZIFALARI**

### **8. SamDCHTI ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

-zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash asosida yuqori malakali o'qituvchi va ilmiy kadrlarni zamonaviy talablar darajasida tayyorlash;

-respublikaning chet tili yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sohasidagi tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida oliy ta'limning o'quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishni ta'minlash;

-fundamental ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ilm-fanning istiqbolli, yuqori texnologiyali yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimiz ilmiy maktablarini rivojlantirish, ilm-fan va oliy ta'lim sohalarida etakchi xorijiy institutlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni mustahkamlash;

-mamlakat oliy ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash;

-oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini e'tirof etilgan xalqaro talablar va standartlar darajasida takomillashtirish;

-jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng

joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda SamDCHTI magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

-oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, SamDCHTI da ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

-ta'lim jarayoniga, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlariga yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;

-yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, institutni zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, yangi adabiyotlar sotib olish va ta'lim jarayoniga joriy qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

-pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o'tkazish, bitiruvchilarni PhD va magistratura dasturlari bo'yicha o'qitish, o'quv jarayonlarga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish;

-ilmiy salohiyatni mustahkamlash, ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish;

-ta'lim jarayonida talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish;

-moddiy-texnik bazani o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash;

-ta'lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

### **III. O'QUV-TARBIYAVIY VA ILMIY-METODIK ISHLARNING SUB'EKTLARI, ULARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

9. SamDCHTI rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs SamDCHTIning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi bepul beriladi.

Muassasaga qabul normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslar arizalariga binoan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartib va qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi qaroriga muvofiq kasbiy ijodiy hamda test sinovlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Institutga qabul barcha uchun (ham grant, ham to'lov-shartnoma bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriენტlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriენტlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-shartnoma kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida ham o'qishga qabul qilish amalga oshiriladi.

SamDCHTIning bakalavriat va magistraturasiga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat, magistraturaga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **10. Institutning talabalari quyidagi huquqlarga ega:**

-fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

-institut axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

-bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olish;

-auditoriylar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;

-ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda institut ma'muriyati, dekanat va kafedra rahbariyatiga bildirish va ularning ko'rib chiqilishini talab qilish;

-institut va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarining barcha turlarida, konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etish, o'z ilmiy ishlarini nashrga, shu jumladan, SamDCHTI nashrlariga taqdim etish;

-institutda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;

-SamDCHTIning muhim masalalarini muhokama etish va hal qilishda, shu jumladan, jamoat tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasasini boshqarish organlari orqali qatnashish;

-o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va boshqa qonunchilikka zid bo'lmagan jamoat ishlarida ishtirok etish;

-o'qishdan bo'sh vaqtlarda oliy ta'lim muassasasining o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash;

-tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'tiladigan fanlardan tashqari, SamDCHTI da o'qitiladigan boshqa fanlarni o'z xohishiga ko'ra shartnoma asosida o'zlashtirish;

SamDCHTI rektorining buyruq va farmoyishlari ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish;

sifatli va yuqori saviyada bilim olish, tanlangan yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib etish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanish.

Talaba o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

11. Davlat grantlari bo'yicha va to'lov-shartnoma asosida o'qitishning kunduzgi shaklida ta'lim olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadilar.

Talabalar tegishli qonunchilik hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi, Islom Karimov, Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyalari, shuningdek, boshqa nomdor stipendiyani olish huquqiga egadirlar.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akadèmik ta'til berish to'g'risida"gi Nizomga asosan talabalarga harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash hamda oilasining betob a'zosini parvarish qilish, homiladorlik va tug'ish, bolalarni parvarish qilish uchun akademik ta'til berilishi mumkin.

13. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga institutda o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

14. SamDCHTI ning turar joyga muhtoj talabalar (birinchi navbatda chin etim, ota yoki onasini (boquvchisini) yo'qotgan, to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan va moddiy tomondan qiynalayotgan talabalar) SamDCHTI ning talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi. Talabalar turar joylarida talabalarga kommunal-maishiy xizmatlar uchun to'lovlar SamDCHTI tomonidan belgilanadi.

15. SamDCHTI dan o'z xohishi yoki uzrli sabablarga ko'ra chetlashtirilgan talaba, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

SamDCHTI ning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish huquqiga ega.

**16. SamDCHTI ning talabalariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:**  
-ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari

talablariga, jamiyatning ahloqiy prinsiplariga, ma'naviy qadriyatlarga, SamDCHTning Ustavi, Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksiga, talabalar turar joylari qoidalariga qat'iy rioya qilish;

-oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallash;

-o'quv mashg'ulotlarini uzrli sabablarsiz qoldirmaslik, darsga kech qolib kelmaslik;

-ta'lim jarayonida, shu jumladan, o'quv dasturlarida belgilangan vazifalarni va topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda va sifatli bajarish;

-o'z kursdoshlari, talabalar, pedagoglar va boshqa xodimlar bilan hushmuomalada bo'lish;

-kiyinish madaniyatiga rioya qilish. Tashqi ko'rinishi va yomon xulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmaslik, axloq-odob normalariga so'zsiz bo'ysunish.

#### **17. Institut hududida talabalarga quyidagilar taqiqlanadi:**

-milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday shakldagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish, targ'ib qilish;

-har qanday ko'rinishga ega nojo'ya harakatlarni va boshqa turdagi huquqbuzarliklarni sodir etish;

-institut binolari va hududidagi moddiy-texnik va boshqa mulklarga zarar etkazish;

-o'qish vaqtida SamDCHT ma'muriyati ruxsatisiz chet el davlatlariga borish.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

18. Ushbu Ustav va SamDCHTning Ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda talabaga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llaniladi: hayfsan e'lon qilish, talabalar safidan chetlashtirish.

19. Belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo'lgan) hamda GPA-o'zlashtirish ko'rsatgichi 2,5 va undan past bo'lgan talaba SamDCHT rektorining buyrug'i bilan kursdan-kursga qoldiriladi.

**20. Talaba institutdan quyidagi hollarda talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin:**

a) o'z xohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

g) o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;

d) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

e) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-shartnoma bo'yicha ta'hsil olayotganlar uchun);

j) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

z) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

i) vafot etganligi sababli.

21. Institut ma'muriyatining tashabbusi bilan ushbu Ustavning 20 - bandining "e)" kichik bandiga ko'ra talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, talaba mazkur Ustavning 20-bandi "g)" kichik bandiga ko'ra chetlashtirilayotgan holda, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining SamDCHTI'dagi boshlang'ich tashkiloti yoshlar etakchisi bilan ham kelishilishi mumkin.

Talaba chetlashtirilganda, unga (ota-onasi yoki huquqiy vasiysiga ularning arizasi bilan) shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig'ma jildga tikib qo'yiladi.

Talabaga qo'llanilgan intizomiy jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan u norozilik bildirishi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli organlarga murojaat etishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarning kasallik yoki ta'tilda bo'lgan vaqti hisobga olinmagan holda xatti-harakat aniqlangandan so'ng bir oydan va xatti-harakat sodir etilganidan so'ng olti oydan kechiktirilmay qo'llaniladi. Talabalarni kasallik vaqtida, akademik ta'til yoki homiladorlik va tug'ish holati bilan bog'liq bo'lgan ta'til vaqtlarida talabalar safidan chetlashtirish mumkin emas.

Kasalligi tufayli darslarga qatnashmagan talaba (yoki uning ota-onasi) bir hafta muddatdan kechiktirmasdan fakultet rahbariyatiga bu haqda xabar beradi va talaba o'qishga kelgan kuni tibbiy ma'lumotnomani taqdim etadi.

22. Talabalar tomonidan SamDCHTI hududi va xonalarida mobil telefonlardan foydalanishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23. SamDCHTI qoshida tashkil etilgan Mintaqa til o'rgatish markazida, institut qoshidagi Konfutsiy institutida hamda Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazida o'qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi. Markaz tinglovchilariga shartnoma asosida chet tillarni uzluksiz o'rganishni, shuningdek, o'qituvchilar va boshqa hodimlarni chet tillarni o'rganish bo'yicha rejasini amalga oshirishni, O'zbekiston fuqarolariga xorijiy tillarni, xorijiy fuqarolarga hamda fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslarga o'zbek, rus va boshqa tillarni jadal uslubda kelishilgan hajmda va muddatda o'qitishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi 25 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq SamDCHTI qoshida tashkil etilgan Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi pedagog va nopedagog xodimlarini uzluksiz malakasini oshirish, kasbiy va pedagogik qayta tayyorlashni amalga oshiradi.

Tinglovchilarni o'qitish shartlari va huquqlari hamda ularga sertifikat va diplom berish amaliyoti tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

**24. Stajyor-tadqiqotchilik, falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Doctor of Science), mustaqil izlanuvchilar.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoniga muvofiq oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali: dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura;

dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi joriy qilingan.

ishlab chiqarishdan ajralgan holda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash tizimi stajyor-tadqiqotchilik joriy qilingan.

**25. Muassasaning professor-o'qituvchilari (pedagog xodimlar) tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari (personali).**

SamDCHTda professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, muhandislik- texnika, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o'qituvchilar (pedagog xodimlar) tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent), o'qituvchi-stajyor lavozimlari kiradi.

26. Professor-o'qituvchilar tarkibidagi lavozimlarni egallash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashi tavsiyasiga ko'ra tanlov asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda 967-sonli qaroriga muvofiq mehnat shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

**27. SamDCHTning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlari quyidagi huquqlarga ega:**

-belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish;

-SamDCHTning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

-SamDCHTI axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarining xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;

-o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

-SamDCHTI ma'muriyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

-qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

-O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida o'zlari ishlayotgan kafedra, fakultetdan tashqari boshqa fakultet, kafedra, tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish beruvchi bilan kelishilgan holda);

-xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

-o'z fani bo'yicha sifatli darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash;

-nazariy bilimlarini, amaliy tajribasini, ilmiy-tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

-talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

-grantlar, ilmiy loyihalar, Start-Up loyihalar va innovatsion g'oyalar tanlovi, xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

-darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, AKT uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olishlarini amalga oshirish;

-tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarining muhokamasida ishtirok etish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy ishlar natijalarini nashr etishga tavsiya berish;

-ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish;

-talabalarning ilmiy- tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

-xorijiy etakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

## **28. SamDCHTning professor-o'qituvchilar (pedagog xodimlar)ning majburiyatlari quyidagilardan iborat:**

-ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli barcha turdagi me'yoriy hujjatlarni bilish;

-ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, mehnat intizomi, mazkur Ustav va Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksiga qat'iy rioya qilish;

-o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va pedagoglik sha'niga dog' tushirmaslik;

-ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

-ish jarayonida muloqot qiladigan muassasa xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan hushfe'l munosabatda bo'lish;

-o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;

-kiyinish madaniyatiga rioya qilish;

-ish beruvchiga bevosita etkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

-mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariya talablariga rioya qilish;

-institutning mol-mulkini asrab-avaylash va undan oqilona foydalanish;

-respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

-darslarni yuqori saviyada o'tish;

-talabalar bilimini xolisona baholash;

-har o'quv yili boshlangunga kadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va nazoratlar jadvalini (majmua) ishlab chiqish, kafedra majlisida tasdiqlash va o'z vaqtida o'tkazish;

-o'quv adabiyotlar tayyorlash, ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, AKT uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

-ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish, talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

-tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan, darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

-Kengash tomonidan tasdiqlangan kafedra ilmiy mavzularida ishtirok etish;

- pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;

- darslik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv adabiyotlarni yozish va nashrga tayyorlash;

- mutaxassisligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

- kasbiy faoliyat sohasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ochiq ma'ruzalar, mahorat darslarini o'quv yilida kamida bir marta tashkil etish;

- oliy ta'lim sifatini ta'minlashda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash;

- talabalarga rus tili yoki ingliz (fransuz, nemis va boshqa) tillaridan birida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni olib borish;

- talabalar bilan auditoriyadan tashqari ishlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish;

- xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, ularni oliy ta'lim sifatini ta'minlashda hamda o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish jarayonida qo'llash;

- ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejaları, o'quv fanlari dasturlarini ishlab chiqish, takomillashtirish.

### **Ilmiy - tadqiqot jarayonlarini tashkil etishda:**

-bakalavr, magistr, doktorant, mustaqil izlanuvchilarga rahbarlik qilish va magistrnlarni hamda fan doktorlarini tayyorlash;

-institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan kafedra ilmiy mavzularida ishtirok etish;

-mutaxassislik fanlari sohasidagi tegishli davriy, ilmiy nashrlardagi axborotlar bilan ishlash, ilmiy yangiliklar va axborotlardan o'quv maqsadlarida foydalanish;

-mutaxassislik yoki tadqiqot mavzusi bo'yicha Web of Science, Scopus, Web of Knowledge, Astrophysics, PubMed, Mathematics, Chemical, Abstracts,

Springer, Agris GeoRef kabi bibliografik bazalaridan biriga kiradigan reytingi yuqori halqaro jurnallarda maqolalar chop etish;

-iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha tashkilotlarida, etakchi mutaxassislar hamda tadbirkorlar bilan seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o'tkazish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning echimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish;

-davlat ilmiy-texnika dasturlari hamda xalqaro ilmiy tanlovlarga loyihalar tayyorlash, mahalliy va xalqaro loyihalar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, grantlar, Start-Up loyihalar va innovatsion g'oyalar tanlovi, ho'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

-xalqaro va mahalliy ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish;

-ratsionalizatorlik g'oyalari, yangi loyihalar, ixtirolar, elektron dasturlar uchun mualliflik guvohnomalarini olish, ijodiy ishlarni tanlov va ko'rgazmalarda namoyish etish;

29. Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 y. № PQ-3775-son Qarori)

30. Institut pedagog xodimlarining xorijda stajirovka o'tash, malaka oshirish va doktoranturada o'qish maqsadidagi xizmat safarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.09.2019 yildagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli hamda 31.12.2020 yildagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarorlari, shuningdek, Institut Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

31. SamDCHTI pedagog xodimlar tarkibining uch yilda kamida bir marotaba qayta tayyorlash va malakasini oshirilishi ta'minlanadi.

32. SamDCHTIning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat hodimlarining huquq va majburiyatlari institut Ichki tartib qoidalari, Odob-ahloq kodeksi va lavozim Yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

#### IV. O'QUV-TARBIYAVIY VA ILMIY-METODIK ISHLAR

33. SamDCHTI ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

**Bakalavriat** – ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati davlat ta'lim standartlarida belgilangan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavriat dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga asosan ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

**Magistratura** – yo‘nalishning muayyan mutaxassisligi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o‘qish muddati davlat ta‘lim standartlarida belgilangan oliy ta‘limdir.

Magistratura dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga asosan tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo‘yicha “magistr” darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish yoki tanlangan ta‘lim yo‘nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta‘lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta‘limning turli bosqichida asosiy ta‘lim dasturlari bo‘yicha dastlabki ta‘lim olish ikkinchi oliy ta‘lim olish sifatida qaralmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qaroriga binoan alohida ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistratura joriy etilishi, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etilishi mumkin.

SamDCHTI da jahonning etakchi oliy ta‘lim muassasalari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari asosida bakalavriat va magistratura yo‘nalishiga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qish tashkil qilinadi.

34. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi “Oliy ta‘lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 930-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2017 yil 28 noyabrdagi 868-sonli buyrug‘i asosida kechki (smenali) ta‘lim tashkil etilgan.

35. SamDCHTI da ta‘lim jarayonini tashkil etish, institut tomonidan ishlab chiqiladigan va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan o‘quv rejalar va o‘quv dasturlari, SamDCHTI rektori (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) tomonidan tasdiqlanadigan yillik o‘quv jadvali hamda mashg‘ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

36. Ta‘lim-tarbiya jarayonining birligi davlat ta‘lim standartlari bilan ta‘minlanadi. Institut kafedralari, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari va sport klubiga, talabalar, boshqa jamoatchilik tashkilotlariga rahbarlik qilish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

37. SamDCHTI da o‘quv mashg‘ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma‘ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi), bakalavrluk bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik tanaffussiz qo'shma dars soati belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil qiladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek hamda rus tili hisoblanadi. Belgilangan tartibda ta'lim ingliz tilida ham olib borilishi mumkin.

38. Institutda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib boriladi.

Institutning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 27 oktyabrda 43-hisob raqami bilan ro'yxatga olingan hamda "O'zstandart" agentligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (O'zDSt 3556:2021) ta'lim sohalari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari qo'llaniladi.

39. Institutda o'quv yili ikki semestrga bo'linadi va uning har birida talabalarning o'zlashtirishi nazorat ishlari shaklida olib boriladi.

GPA-o'zlashtirish ko'rsatgichi 2,5 va undan yuqori bo'lgan o'zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining bildirishnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Institutning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentyabrda 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq tartibga solinadi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom"ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi bilan tugallanadi.

40. SamDCHTIda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim olishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy - uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

41. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

**oliy ta'limdan keyingi ta'lim** — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi;

**oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti** — SamDCHTIda tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik hamda stajyor-tadqiqotchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi;

**stajyor-tadqiqotchilik** — ishlab chiqarishdan ajralgan holda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash shakli;

**tayanch doktorantura** — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda

tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**doktorantura** — fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**mustaqil izlanuvchilik** — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**stajyor-tadqiqotchi** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga stajyor-tadqiqotchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**doktorant** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**mustaqil izlanuvchi** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**izlanuvchi** — falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs.

**oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (keyingi o'rinlarda — Yagona elektron tizim)** — oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish, stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejaları bajarilishi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish bo'yicha hujjatlarning elektron almashinuvini tashkil etishga mo'ljallangan axborot tizimi.

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qaroriga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha kasbiy ta'lim dasturlari amalga oshiriladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat namunasidagi sertifikat (diplom) beriladi.

Institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan mavzular, rejalar bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligi ta'minlangan holda talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar keng jalb etilib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar olib boriladi.

43. Ilmiy-tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

-davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida fan, texnika va madaniyatning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag'lari;

-shartnoma asosida, qonunda belgilangan tartibda sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlar mablag'lari;

-olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish asosidagi tushumlar;

- byudjetdan tashqari mablag'lar;
- homiy tashkilot va korxonalar;
- mahalliy byudjet mablag'lari;
- innovatsion fond mablag'lari.

## V. SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTINING TARKIBI

### 44. SamDCHTI tarkibiga quyidagilar kiradi:

#### a) Fakultetlar:

- Ingliz tili fakulteti I;
- Ingliz tili fakulteti II;
- Roman-german tillari fakulteti;
- Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti;
- Sharq tillari fakulteti;
- Narpay "Xorijiy tillar" fakulteti;
- Payariq "Xorijiy tillar" fakulteti;
- Qo'shma ta'lim dasturlari fakulteti;
- Kechki fakultet.

#### b) Kafedralar:

- Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasasi;
- Ingliz tili va adabiyoti kafedrasasi;
- Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasasi;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasasi;
- Ingliz tilining integrallashgan kursi kafedrasasi;
- Ingliz tili nazariyasi va adabiyoti kafedrasasi;
- Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasasi;
- Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasasi;
- Fransuz tili va adabiyoti kafedrasasi;
- Ispan va italyan tillari kafedrasasi;
- Nemis tili va adabiyoti kafedrasasi;
- Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasasi;
- Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasasi;
- Yaqin sharq tillari kafedrasasi;
- Koreys filologiyasi kafedrasasi;
- Yapon filologiyasi kafedrasasi;
- Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasasi;
- Ingliz filologiyasi kafedrasasi;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi;
- Rus tili va adabiyoti kafedrasasi;
- Til va tarjima kafedrasasi;
- Ikkinchi chet tillar kafedrasasi;
- Umumiy fanlar kafedrasasi (Payariq);
- Umumiy fanlar kafedrasasi (Narpay);

- Qo'shma ta'lim dasturlari kafedrası.

**v) O'quv va ilmiy laboratoriyalar**

O'quv va ilmiy nazariy bilimlarni amalda qo'llash, ilmiy-tadqiqot olib borish usullarini o'rganish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**g) SamDCHTIning tashkiliy tuzilmasi quyidagi ma'muriy boshqaruv va bo'limlardan iborat:**

1. Rektor, SamDCHTI kengashi, Kuzatuv kengashi, Jamoatchilik kengashi
2. O'quv ishlari bo'yicha prorektor
3. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
4. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
6. Talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rektor maslahatchisi
7. Yuriskonsult
8. Rektor yordamchisi
9. Xodimlar bo'limi
10. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi
11. Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi
12. Devonxona va arxiv
13. Talabalar bo'limi
14. Birinchi bo'lim
15. Ikkinchi bo'lim
16. Matbuot kotibi
17. Xalqaro hamkorlik bo'limi
18. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
19. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi
20. Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati
21. Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi
22. O'quv-uslubiy boshqarma
23. Ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi
24. Axborot-resurs markazi
25. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi
26. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
27. Talabalarni turar joyi bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim
28. Talabalar turar joyi
29. Psixolog
30. Yoshlar ittifoqi institut Boshlang'ich tashkiloti etakchisi
31. Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi
32. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi

33. Magistratura bo'limi
34. Tahrir-nashriyot bo'limi
35. Bosmaxona
36. Xalqaro reytinglar bo'yicha ishlash bo'limi
37. Buxgalteriya
38. Reja-moliya bo'limi
39. Bosh muhandis
40. Bosh energetik
41. Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi.
42. O'qitishning texnik vositalari bo'limi
43. Fuqaro va mehnat muhofazasi bo'limi
44. Qurilish bo'limi
45. Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2018 yil №PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan).

Samarqand davlat chet tillar instituti tarkibida akademik litsey, mintaqa til o'qitish markazi, Narpay xizmat ko'rsatish texnikumi faoliyat olib boradi. Institut akademik litseyi va Narpay xizmat ko'rsatish texnikumining o'quv-uslubiy faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda o'quv jarayonini nazorat qilib boradi.

## **VI. SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTINI BOSHQARISH**

45. Institutni boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va Institut kengashi, Kuzatuv kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

46. SamDCHTIning bevosita boshqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qaroriga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasasi Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadigan rektori tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor institut faoliyatiga, institutning Ichki tartib qoidalari, mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'liq mas'uldir.

47. SamDCHTI byudjet va byudjetdan tashqari mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lash va stipendiya to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish uchun javobgarlik rektor zimmasiga yuklanadi.

Rektor O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq institut nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, institutning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

**Rektor institutning vakolati doirasida:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli qaroriga muvofiq.

a) akademik mustaqillik sohasida:

o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta’lim tilini hamda ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to‘lov-kontrakt asosida o‘qish qiymatini belgilash, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo‘shimcha ravishda qabul qilish;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistratura bosqichida ta’limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o‘zaro kelishuvlar asosida oliy ta’lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;

oliy ta’lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta’lim muassasalari uchun o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat’iy nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;

xorijiy davlat fuqarolarini to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish va masofaviy ta’lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab qo‘shimcha vakolatlar berilgan.

Mazkur keltirilgan vakolatlar SamDCHTI tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

-Institutning barcha hodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

-SamDCHTI fakultet dekanlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

-SamDCHTI prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

-SamDCHTI hodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi asosida mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

-SamDCHTI tarkibiga kirgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarining vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

-SamDCHTI xodimlarining lavozim maoshlariga belgilangan tartibda ustamalar va qo'shimchalarni belgilaydi;

-SamDCHTIning xodimlar va talabalar kasaba uyushma qo'mitalari bilan kelishgan holda Ichki mehnat tartib qoidalarini tasdiqlaydi;

-amaldagi qonun hujjatlari yoki Vazirlikning normativ-huquqiy hujjatlari buzilgan holda SamDCHTI rektorining chiqarilgan buyruqlarini bekor qiladi;

-SamDCHTI da namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan SamDCHTI xodimlarining soni va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tarkibi va SamDCHTI ning shtat jadvalini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

-SamDCHTI Kengashining tavsiyasiga ko'ra o'rnatilgan tartibda tegishli normativ - huquqiy hujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish (tashkil etish) yoki yopish (tugatish) qarorlarini tasdiqlaydi.

-SamDCHTI rektoriga o'zi ishlayotgan oliy ta'lim muassasasida va undan tashqarida haq to'lanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy-metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

48. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarori asosida moliyaviy mustaqillik berilgan SamDCHTI da Kuzatuv kengashi faoliyat olib boradi. SamDCHTI Kuzatuv kengashining asosiy vakolatlari etib quyidagilar belgilangan:

oliy ta'lim muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

oliy ta'lim muassasasining o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

oliy ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

oliy ta'lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

oliy ta'lim muassasasi hamda ular huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash.

49. Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq SamDCHTI faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun Kengash faoliyat ko'rsatadi.

Nizom bo'yicha Kengash tarkibiga rektor kiradi va Kengash raisi hisoblanadi, shuningdek, prorektorlar, etuk mutaxassislar, fakultetlar dekanlari, institut tarkibiga kiruvchi tashkilot va tarmoqlar rahbarlari, mutaxassis tayyorlovchi kafedralar mudirlari, institut talabalari va xodimlari, kasaba uyushmalarining vakillari kiradi. Kengashning boshqa a'zolari umumiy majlisda (konferensiyada) yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Pedagog xodimlar tarkibidan Kengashga saylanuvchi a'zolarining soni rektor buyrug'i bilan belgilanadi. Kengashning vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasining Kengashi to'g'risidagi Nizom" asosida ishlab chiqilgan va SamDCHTI rektori tomonidan tasdiqlangan "Samarqand davlat chet tillar instituti Kengashi to'g'risida" gi Nizom bilan belgilanadi.

SamDCHTI Kengashining vakolatlari:

-konferensiyalarni tashkil etish, shuningdek, uning o'tkazilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

-institutni rivojlantirishning asosiy istiqbolli yo'nalishlarini, shu jumladan, uning ta'lim va ilmiy faoliyatini belgilash;

-o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy masalalari, shu jumladan, talabalarni qabul qilish qoidalarini belgilash, o'quv rejasini tuzish, talabalarni o'qitishning amaldagi tartibini tartibga solish, yakuniy nazoratlar bo'yicha talabalarni o'zlashtirishi natijalarini ko'rib chiqish;

-moliyaviy-xo'jalik faoliyatining rejasini va institutni rivojlantirish dasturini ko'rib chiqish;

-institut rektorining yillik hisobotlarini tinglash;

-ta'lim masalalari, ilmiy-tadqiqot masalalari bo'yicha axborot- tahliliy, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini va shuningdek, institutning halqaro hamkorlik masalalari bo'yicha qarorlarini qabul qilish;

-institut Kengashining ish rejasini tasdiqlash;

-institut professor-o'qituvchilaridan nomzodlarni ilmiy unvonlar olishga tavsiya qilish;

-institutning faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'limlarni tuzish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish (ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-texnik laboratoriya faoliyatini amalga oshirish, ilmiy-texnik faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarning ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi bo'limlar tashkil etish va tugatish to'g'risida);

-institut pedagogik xodimlarini Kengashda tanlov bo'yicha o'tkazish;

-institut xodimlarini Davlat mukofotlariga tavsiya etish;

-institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida faxriy unvonlar berish;

-institutda talabalar uchun stipendiya masalalarini tartibga soluvchi qoidalarni tasdiqlash;

-Davlat va nomdor stipendiyalarga talabalar nomzodlarini tavsiya qilish.

50. Institutda Kasaba uyushmasi va boshqa jamoatchilik kengashi faoliyat ko'rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni talabalar va xodimlar-kasaba uyushmasi qo'mitasi hamda ularning SamDCHTI da saylangan organlari amalga oshiradi.

#### **Kasaba uyushmasi huquqlari:**

SamDCHTI ni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga doir masalalarni ko'rib chiqishda qatnashish;

SamDCHTI xodimlari, talabalariga moddiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirishni tashkil etish;

Muzokaralar olib borish, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzish;

Jamoa a'zolaridan kelgan shikoyat ariza va boshqa murojaatlarini ko'rib chiqish;

Mehnat nizolarini ko'ruvchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilish va qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

#### **SamDCHTI majburiyatlari:**

Xodimlarning vakolatli organi bo'lgan kasaba uyushma qo'mitasining huquqlariga rioya qilish va uning faoliyatiga ko'maklashish;

Xodimlar va talabalar manfaatlariga taalluqli bo'lgan qarorlarni qabul qilishdan oldin ularning vakillik organlari bilan maslahatlashish, mehnat

to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ko'rsatilgan hollarda esa, ularning roziligini olish;

Xodimlarning vakillik organlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqining SamDCHTI dagi boshlang'ich tashkiloti yoshlar etakchisi, xotin-qizlar qo'mitasi va faxriylar kengashi faoliyat ko'rsatadi.

Qonunchilikda belgilangan tartibda jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining SamDCHTI dagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari, ilmiy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi, talabalar ma'naviy-ma'rifiy klublari va boshqa jamoat tashkilotlar tashkil etilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini Kengashda ko'rib chiqadi va o'z faoliyatida ularni hisobga oladi.

51. SamDCHTI ta'lim faoliyatini yo'nalishlar bo'yicha boshqarish o'quv ishlari bo'yicha, yoshlar bilan ishlash, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha hamda moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Prorektorlar vakolatlari SamDCHTI Ichki tartib qoidalari, lavozim vazifalari va oliy ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi.

52. Fakultet dekani o'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq fakultetda Kengash tashkil etilishi mumkin.

Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirilishi va faoliyati qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kafedrani odatda, fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, shuningdek, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilmiy darajasi (PhD)ga ega bo'lgan hamda belgilangan tartibda institut Kengashida tanlovdan o'tgan kafedra mudiri boshqaradi va unga kafedra faoliyati uchun shaxsiy mas'uliyat yuklatiladi.

Kafedra mudirining vazifalari va kafedraning faoliyati qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017 yil 28 apreldagi 267-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari kafedralari faoliyatini tashkil etish hamda kafedra mudirlari faoliyatini baholab borish tartibi"ga asosan amalga oshiriladi.

## **VII. MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATI VA MODDIY-TEXNIK BAZA**

53. SamDCHTIga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, SamDCHTI pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek, iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktirilgan.

SamDCHTI faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob'ektlar qatoriga kiritilgan.

Institutga ajratilgan er uchastkalari SamDCHTIga muddatsiz tekin foydalanish uchun birlashtirilgan.

54. SamDCHTIga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'a, hadya yoki vasiyat bo'yicha berilgan pul mablag'lari, mol-mulk va boshqa mulkiy ob'ektlarga, institut faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek, o'z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob'ektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

55. SamDCHTI mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq oliy ta'lim muassasasi o'ziga birlashtirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulklarni kengashning roziligi bilan tasarruf etish huquqsiz, belgilangan narxlar bo'yicha ijaraga berishni amalga oshiradi.

56. Institutning ta'lim faoliyatini moliyaviy ta'minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan byudjet mablag'lari, davlat tomonidan belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish hisobiga ajratilgan mablag'lar, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar, jumladan, talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan to'lov-shartnoma asosidagi mablag'lar, innovatsion, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish faoliyati, masofadan o'qitish, homiylik, grant, chet-el grantlari va amaldagi qonunchilik tomonidan taqiqlanmagan barcha moliya-xo'jalik faoliyatidan olinadigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Institutning asosiy faoliyatidan chetlanmagan tartibda ta'lim va boshqa sohalarda pullik xizmat faoliyatini amalga oshirish mumkin. Institutda shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Institut pullik ta'lim xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

57. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasiga muvofiq SamDCHTI ustavida belgilangan vazifalariga muvofiq pullik ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

SamDCHTI da pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot izlanishlarga qaratilgan ilmiy-ishlab chiqarish korxonalar, xo'jalik jamiyatlar tashkil qilinishi mumkin.

SamDCHTI O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur ustavga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

58. Institutda lavozim maoshlari mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzilayotganda “Oliy ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga xaq to’lash” to’g’risidagi qonun hujjatlari hamda mehnatga xaq to’lashning, SamDCHTI uchun belgilangan mehnatga haq to’lash qoidalari va yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. SamDCHTI xodimiga lavozim maoshi o’z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to’lanadi. Xodimga qo’shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag’batlantirish tadbirlarining hajmini institut mustaqil, ish xaqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilaydi.

SamDCHTI da tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko’rsatishlari uchun zarur bo’lgan xonalar ajratiladi va ularning tozaligini ta’minlash tashkil etiladi.

59. Institutga qarashli umumiy ovqatlanish joylari, bo’sh turgan maydonchalar SamDCHTI rahbariyati tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ijaraga berilishi mumkin.

SamDCHTI ning tegishli binolarini ta’mirlesh, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta’minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## VIII. XALQARO HAMKORLIK

60. SamDCHTI O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 67-moddasiga muvofiq ta’lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o’quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o’rnatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo’shma ta’lim dasturlarini tashkil etish huquqiga ega.

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 68-moddasiga asosan Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

61. SamDCHTI da halqaro hamkorlik bo’yicha kuyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-chet ellik oliy ta’lim muassasalari bilan tuzilgan ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari asosida ilmiy-pedagogik xodimlar almashinuvi dasturlarini amalga oshirish;

-hamkorlikda ilmiy va amaliy tadqiqotlar, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish;

-chet el yuridik va jismoniy shaxslarining buyurtmalariga muvofiq, fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish;

-dunyoning etakchi oliy o’quv yurtlarida va tadqiqot markazlarida ish tajribasiga ega bo’lgan chet ellik professor-o’qituvchilar va mutaxassislarni o’quv jarayoni va ilmiy-tadqiqotlarda ishtirok etish uchun jalb qilish;

-institut xodim va talabalarini xorijiy oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlariga stajirovka, ilmiy izlanishlar, shuningdek, malaka oshirish, konferensiya, simpozium va boshqa tadbirlarda ishtirok etish uchun yuborish;

-xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarni asosiy va qo’shimcha

ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish, shuningdek, ularga qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish;

-xalqaro ilmiy-tadqiqotlar, oliy ta'limga oid dasturlarni amalga oshirishda halqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan grantlar bo'yicha tanlovlarda ishtirok etish;

-chet ellik yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar bilan xamkorlik shartnomalarini tuzish;

-ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish va ta'lim jarayoniga tatbiq qilish;

-xorijiy aloqalar faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

-xorijiy xamkorlikning ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

62. SamDCHTI xodimlari, o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning chet elga xizmat safarlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq SamDCHTI rektorining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

63. SamDCHTIning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan uning Ustavida belgilangan faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi.

## IX. YAKUNIY QOIDALAR

64. SamDCHTI O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javobgar hisoblanadi:

Uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarmaganligi;

ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvallarga muvofiq ta'lim dasturlari hajmini to'liq bajarmaganligi;

ta'lim jarayoni vaqtida SamDCHTIda ta'lim oluvchilar va xodimlarining hayoti va sog'lig'i;

ta'lim oluvchilar va SamDCHTI xodimlarining huquq va erkinliklarining buzilganligi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlar.

65. SamDCHTI O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli normativ-huquqiy hujjati asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

66. Mazkur Ustav SamDCHTI kengashining 2023 yil 21 iyun 10 -sonli yig'ilishida muhokama qilingan.

67. SamDCHTI Ustaviga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish SamDCHTI kengashining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.